



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:4 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

№	MUNDARIJA	Page
1.	SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li</i>	4
2.	QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'NING XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI <i>Bobomurodov Abdurasul</i>	7
3	KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH <i>Ruziyev Oybek Abdimuminovich, Karimov Erkin Yusubovich</i>	10
4	KICHIK BIZNESNI MOLIYAVIY RESURSLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRIGA TA'SIR E'TUVCHI OMILLARI <i>Ketmanov Avazbek Malikovich</i>	13
5	ELEKTR ENERGIYASINI SOTISHDA YO'QOTISHLARNI QOPLASH BO'YICHA HISOB-KITOBBLAR <i>Nurniyozov Feruz Abdurashid o'g'li</i>	16
6	DAVLAT XARIDLARINING IQTISODIY MAZMUNI VA MAMLAKAT MOLIYA TIZIMIDAGI O'RNI: NAZARIY YONDASHUVLAR <i>Xamdamov Sardor Farmon o'g'li</i>	19
7	MAVSUMIY ISHLAB CHIQRISH SHAROITIDA KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Kilichev Alisher Akramovich</i>	21
8	XUSUSIY TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Primkulova Zilola Abrorovna</i>	23
9	TIBBIY XIZMATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shamsikulova Moxina bonu Furkatovna</i>	25
10	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH VA SOLIQ INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH <i>Sanakulova Iroda Abrorovna</i>	28
11	TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI <i>Dadaev Kuvanish Mashrapovich</i>	31
12	RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING AFZALLIKLARI <i>Jumaniyazov Rashid Azamatovich</i>	34
13	QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Bakhodir Khoshbakov</i>	36

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Bakhodir Khoshbakov

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

e-mail: baxodir_xushbakov@tues.uz

ORCID: 0009-0006-7566-6976

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Iqtisodiy salohiyatning mazmun-mohiyati, tarkibiy elementlari hamda uni baholashga oid ilmiy yondashuvlar tizimli ravishda tahlil qilingan. Shuningdek, Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanish holati texnologik, moliyaviy, mehnat, boshqaruv va innovatsion salohiyat ko'rsatkichlari asosida baholangan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy salohiyat, qurilish materiallari sanoati, sanoat korxonasi, texnologik salohiyat, innovatsion salohiyat, moliyaviy salohiyat.

Abstract: This article studies the theoretical and practical aspects of the effective use of the economic potential of enterprises in the building materials industry. The content, structural elements of economic potential, and scientific approaches to its assessment are systematically analyzed. Also, the state of use of the economic potential of enterprises in the building materials industry operating in Surkhondaryo region is assessed based on technological, financial, labor, management, and innovative potential indicators.

Keywords: economic potential, building materials industry, industrial enterprise, technological potential, innovative potential, financial potential.

Абстрактный: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты эффективного использования экономического потенциала предприятий строительной отрасли. Систематически анализируются содержание, структурные элементы экономического потенциала и научные подходы к его оценке. Также на основе показателей технологического, финансового, трудового, управленческого и инновационного потенциала оценивается состояние использования экономического потенциала предприятий строительной отрасли, действующих в Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: экономический потенциал, строительная отрасль, промышленное предприятие, технологический потенциал, инновационный потенциал, финансовый потенциал.

Kirish (Введение/Introduction).

Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini nazariy va metodologik jihatdan baholash uchun, avvalo, "salohiyat" tushunchasining mazmunini aniqlash zarur. "Salohiyat" atamasi lotincha "potentia" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kuch-qudrat, imkoniyat, iqtidor ma'nolarini bildiradi. Ilmiy va lug'aviy manbalarda "salohiyat" vakolat, qobiliyat, ichki imkoniyatlar hamda mavjud resurslar majmuasi sifatida izohlanadi [1]. Demak iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan, salohiyat - bu korxonaning mavjud resurslaridan (moddiy, moliyaviy, mehnat, innovatsion va boshqalar) samarali foydalanish orqali belgilangan maqsadlarga erishish qobiliyatini ifoda etadi. Qurilish materiallari sanoati mamlakatning sanoat salohiyati, investitsion jozibadorligi va infratuzilma rivojlanishini ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi [2]. Raqobatning kuchayishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda resurslardan samarali foydalanish zarurati korxonalarning iqtisodiy salohiyatini kompleks baholash va uni oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylantirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Korxonalarning iqtisodiy salohiyati tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinib, uning mazmuni ishlab chiqarish resurslari, moliyaviy imkoniyatlar, innovatsion faoliyat, boshqaruv sifati va inson kapitalining uyg'unligida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "salohiyat" atamasi mavjud imkoniyat, quvvat va ma'lum natijaga erishish uchun zarur bo'lgan ichki imkoniyatlar majmui sifatida izohlangan bo'lib, ushbu yondashuv iqtisodiy salohiyat tushunchasining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi [1].

Korxona iqtisodiy salohiyatining ilmiy mazmuni va uni baholash usullariga oid tadqiqotlarda T.N. Barsova, O.V. Orlova hamda L.M. Putyatina iqtisodiy salohiyatni korxonaning moddiy, mehnat, moliyaviy, texnologik va boshqaruv resurslarining o'zaro integratsiyalashgan tizimi

sifatida talqin qiladilar. Mualliflar iqtisodiy salohiyatni baholashda resurslardan foydalanish samaradorligi, rentabellik, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi va innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlarini kompleks ravishda hisobga olish zarurligini asoslab berganlar [3]. Ushbu ilmiy qarashlar keyinchalik mualliflarning monografiyasida yanada rivojlantirilib, sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy mexanizmlari batafsil yoritilgan [6].

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari A.N. Rahimovning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan. Olim sanoat tarmoqlarida iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, texnologik yangilanish, resurs tejamkorligini ta'minlash va boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqligini asoslaydi [4]. Muallifning monografiyasida esa iqtisodiy salohiyatni boshqarishning nazariy asoslari, uning tarkibiy elementlari hamda samaradorlikni oshirish mexanizmlari tizimli ravishda yoritilib, korxona rivojlanishida strategik boshqaruvning o'rni alohida ta'kidlangan [7].

Hududiy va sanoat ekotizimlari salohiyatini baholash bo'yicha L.A. Gamidullayeva hamda hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan kompleks yondashuv iqtisodiy salohiyatni faqat korxona miqyosida emas, balki sanoat ekotizimining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik, innovatsion aloqalar va barqaror rivojlanish omillari bilan bog'liq holda baholash zarurligini ko'rsatadi [5]. Muallifning alohida monografiyasida hududiy sanoat salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari, raqobatbardoshlikni oshirish va sanoat infratuzilmasini rivojlantirish masalalari chuqur tahlil qilingan [8].

Qurilish materiallari sanoati korxonalarini boshqarish va ularning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda mahalliy olimlar tomonidan ham keng o'rganilmoqda. A.D. Metyakubov qurilish materiallari korxonalarida boshqaruv mexanizmlarini ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish,

innovatsion texnologiyalarni joriy etish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi [2; 14]. Muallif korxonalarda raqamli boshqaruv, strategik rejalashtirish va iqtisodiy monitoring tizimlarini rivojlantirish iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy asoslaydi.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish masalalari I.N. Achilov tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Muallif ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, zamonaviy menejment usullarini qo'llash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mumkinligini qayd etadi [13]. Shuningdek, Sh.Z. Igamova O'zbekiston qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, tarmoqda investitsion faollikni oshirish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish va eksport salohiyatini kengaytirish istiqbollarini ilmiy asoslab bergan [15].

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimizning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda hududlarning sanoat salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan [9]. Mazkur yo'nalishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda [10].

Statistik ma'lumotlar ham qurilish materiallari sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora ortib borayotganligini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, sanoat ishlab chiqarishida qurilish materiallari tarmog'ining ulushi yil sayin ortib bormoqda, yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilmoqda va hududlarda investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda [12]. Xususan, Surxondaryo viloyati misolida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmining o'sishi, yangi korxonalar tashkil etilishi va investitsiyalar oqimining kengayishi iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning amaliy natijalarini namoyon etmoqda [11].

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy salohiyatni baholashning nazariy-uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilgan bo'lsa-da, aynan qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishni kompleks baholash, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda zamonaviy raqamli boshqaruv vositalarini qo'llash masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga hamda qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik tahlil, mantiqiy umumlashtirish, induksiya va deduksiya, ekspert baholash hamda ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, resurs, investitsion va boshqaruv salohiyatini baholash uchun iqtisodiy tahlil usullari qo'llanildi. Olingan natijalar o'zaro taqqoslanib, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar hamda amaliy kuzatuvlar o'zaro solishtirildi.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan taxminan 30 foiz darajada foydalanildi. Sun'iy intellekt ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish, ma'lumotlarni umumlashtirish, matnning uslubiy va grammatik jihatdan takomillashtirilishi hamda ilmiy bayonning izchilligini ta'minlashda yordamchi vosita sifatida qo'llanildi. Bunda tadqiqotning ilmiy g'oyasi, metodologik yondashuvi, tahlil natijalari, xulosalar va takliflar muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi, barcha yakuniy ilmiy qarorlar va talqinlar muallifning shaxsiy ilmiy tahliliga asoslandi.

T.N. Barsova, O.V. Orlova va L.M. Putyatina tadqiqotlarida sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyati nazariyasi uzoq vaqtdan beri ilmiy va amaliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Salohiyat nazariyasi ilmiy

jihatdan 1970-yillar boshida shakllana boshlagan va uning asosiy yo'nalishlari terminologik tadqiqotlar, sifat va faktorli tahlil hamda miqdoriy baholashdan iborat [3]. Tadqiqotda salohiyat tushunchasini milliy iqtisodiyot yoki sohalar darajasida aniqlashga qaratilgan. Sifat va miqdoriy tahlil natijalari makroiqtisodiy shartlar o'zgarishi bilan iqtisodiy tizimlarning salohiyatini baholash imkonini berishini ta'kidlaganlar.

A.N.Raximov "korxonaning iqtisodiy salohiyati - bu mavjud resurslardan oqilona foydalanish, barqaror o'sishni ta'minlash va strategik maqsadlarga erishish bilan birga tashqi va ichki muhitning o'zaro ta'sirida ifodalangan umumiy qobiliyatdir" [4] deb talqin qilgan bo'lsa, L.A. Gamidullayeva sanoat salohiyatining ikki asosiy yo'nalish "korxonalar va hududning o'zgaruvchan sharoitlarga mos ravishda rivojlanishga tayyorligi, hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, uni bozorda ilgari surish va realizatsiya qilish imkoniyati asosida tadqiq qilgan. Sanoat salohiyatining har bir mazmunli yo'nalishi hudud iqtisodiyotining barqarorligiga, aholi farovonligi, shuningdek hudud budjetlarining to'ldirilishiga bevosita ta'siri baholangan" [5]. Muallif sanoat salohiyatini nafaqat ishlab chiqarish imkoniyatlari, balki bozorda samarali faoliyat yuritish va marketing, logistika hamda servis xizmatlarini tashkil etish kabi mexanizmlar orqali ham baholash muhimligini asoslab bergan. Shu bilan birga tadqiqotda sanoat salohiyatining asosiy jihatlarini kompleks modellar orqali baholanishi va hududning iqtisodiy rivojlanishini prognozlash usullari tadqiqotda batafsil yoritilmagan.

Tadqiqotda qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasini baholash va uni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar, guruhlash, taqqoslash va kompleks baholash usullaridan foydalanildi. Empirik tahlil Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan "Fabbulo story servis" MCHJ, "Surxon inert stroy" MCHJ hamda "Komfort mdv sifat" MCHJlarning 2019–2025-yillardagi texnologik, moliyaviy, mehnat, boshqaruv, innovatsion va umumiy iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlari asosida amalga oshirildi. Shuningdek, hududning makroiqtisodiy rivojlanish tendensiyalari ham tahlil qilinib, iqtisodiy salohiyatni oshirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda SMART tahlil usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Qurilish materiallari sanoati hudud iqtisodiyotining tarkibiy qismi sifatida sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar faolligi hamda qurilish hajmlarining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur tarmoq korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash avvalo hududning makroiqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishni talab etadi. Surxondaryo viloyati misolida olib borilgan tadqiqot natijalari hudud iqtisodiyotida qurilish sohasining ulushi yildan-yilga ortib borayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, asosiy kapitalga investitsiyalar hamda qurilish ishlari hajmidagi ijobiy o'zgarishlar qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar iqtisodiy salohiyatining shakllanishi uchun qulay iqtisodiy muhitni yuzaga keltirgan.

1-jadval

Surxondaryo viloyati asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari¹


Ko'rsatkichlar/yil	2021	2022	2023	2024	2025
Yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'ati (foiz)	109,3	104,2	105,1	105,9	106,6
Sanoat mahsuloti o'sish sur'ati (foiz)	109,7	104,2	106,3	106,6	109,3
Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'ati (foiz)	109,7	87,5	148,3	86,2	131,1
Qurilish ishlari o'sish sur'ati (foiz)	112,9	101,6	110,5	119,0	108,5
Kapital qaytimi (viloyat YAHM bo'yicha, so'm)	2,8	3,4	2,6	3,3	2,9
Kapital qaytimi (viloyat qurilish ishlari bo'yicha, so'm)	5,4	5,6	5,2	5,7	5,8

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillarda Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati 2021-yildagi 109,3 foizdan 2025-yilda 106,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2025-yilda 109,3 foizga yetgan. Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atida esa keskin tebranishlar kuzatilib, 2023-yilda 148,3 foizga oshgan bo'lsa, 2024-yilda 86,2 foizgacha pasaygan. Qurilish ishlari hajmi butun davr davomida ijobiy o'sishni saqlab qolib, 2024-yilda eng yuqori

¹ Muallif ishlanmasi

– 119,0 foiz ko'rsatkichga erishgan. Kapital qaytimi ko'rsatkichlari nisbatan barqaror bo'lib, qurilish ishlari bo'yicha kapital qaytimi (5,2–5,8 so'm) yalpi hududiy mahsulot bo'yicha kapital qaytimidan (2,6–3,4 so'm) yuqori bo'lgan. Bu holat qurilish tarmog'ida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi boshqa iqtisodiy faoliyat turlariga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi. Mazkur natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish faqat investitsiyalar hajmini ko'paytirish bilan emas, balki investitsiyalarning qaytimini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan uzviy bog'liqdir.

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biri texnologik salohiyat hisoblanadi. Zamonaviy texnika va texnologiyalar ishlab chiqarish tannaxrini pasaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, energiya resurslarini tejash hamda korxonaning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shu bois tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan uchta qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonaning texnologik salohiyatidan foydalanish darajasi tahlil qilindi.



1-rasm. Surxondaryo viloyatidagi ayrim sanoat korxonalarining umumiy texnologik salohiyatidan foydalanish koeffitsiyenti (2019–2025-yillar)²

1-rasmdan ko'rinib, "Fabullo story servis" MCHJda asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti butun davr davomida 0,92–0,93 oralig'ida saqlanib qolgan. Bu korxonaning texnik bazasi qoniqarli holatda ekanligini ko'rsatsa-da, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti 0,55–0,67 oralig'ida shakllangan. Natijada umumiy texnologik salohiyat ko'rsatkichi 0,42–0,46 darajasidan yuqoriga ko'tarilmagan. Mazkur holat mavjud texnik resurslardan to'liq foydalanilmayotganligini anglatadi.

"Surxon inert story" MCHJda texnologik modernizatsiya jarayonlari nisbatan faol amalga oshirilgan. Asosiy vositalarni yangilash koeffitsiyenti 2019-yildagi 0,17 dan 2025-yilda 0,21 gacha oshgan. Shu bilan birga ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi 0,38 dan 0,68 gacha ortgan. Natijada umumiy texnologik salohiyat ko'rsatkichi ham 0,39 dan 0,47 gacha yaxshilangan. Ushbu natijalar korxonada amalga oshirilgan investitsion loyihalar ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini tasdiqlaydi.

Tahlil qilinayotgan korxonalar orasida "Komfort mdv sifat" MCHJ eng yuqori texnologik salohiyatga ega ekanligi aniqlandi. Korxonada ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti 0,70–0,87 oralig'ida shakllangan bo'lib, umumiy texnologik salohiyat ko'rsatkichi 2025-yilda 0,52 ga yetgan. Mazkur natija korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi yuqori ekanligini hamda

texnologik modernizatsiya jarayonlari muntazam amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, korxonalarda texnologik salohiyatni oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, energiya tejamkor uskunalarini joriy etish hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili hududda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy sharoit shakllanganligini ko'rsatadi. Tadqiqot davrida yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati 102,7–109,3 foiz, sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'ati esa 97,9–109,7 foiz oralig'ida kuzatilgan. Shu bilan birga, qurilish ishlari hajmining barqaror o'sishi va investitsiya faolligining ortishi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini kengaytirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, hudud iqtisodiyotining o'sish sur'atlari va investitsiya faolligining ortishi qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish uchun qulay makroiqtisodiy asos yaratgan. Biroq iqtisodiy salohiyatni oshirishda investitsiyalar hajmidan ko'ra ularning samaradorligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi hamda texnologik yangilanish jarayonlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan shu sababli keyingi bosqichda tadqiqot doirasida korxonalarning texnologik salohiyatidan foydalanish darajasi batafsil tahlil qilindi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyati ko'p komponentli tizim bo'lib, uning samaradorligi texnologik, moliyaviy, mehnat, boshqaruv va innovatsion salohiyatlarning o'zaro uyg'un rivojlanishiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Surxondaryo viloyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlari hududda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy sharoit mavjudligini tasdiqlasa-da, investitsiyalar hajmining ortishi barcha hollarda iqtisodiy samaradorlikning mutanosib oshishini ta'minlamayotganligi aniqlandi.

Korxonalar faoliyatini qiyosiy baholash natijasida "Komfort mdv sifat" MCHJ iqtisodiy salohiyatdan foydalanish bo'yicha nisbatan yuqori natijalarga erishganligi, "Surxon inert story" MCHJda modernizatsiya jarayonlari ijobiy samara berayotganligi, "Fabullo story servis" MCHJda esa mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligi aniqlandi. Bu korxonalarda iqtisodiy salohiyatni oshirishning asosiy omili investitsiyalar hajmidan ko'ra, mavjud resurslardan samarali foydalanish va texnologik yangilanishni jadallashtirish ekanligini ko'rsatadi.

SMART tahlili natijalari asosida korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, raqamli boshqaruv tizimlarini keng qo'llash, xodimlarning malakasini muntazam oshirish hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish zarurligi asoslandi. Ushbu chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini kompleks baholash va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. A.Mamadaliyev tahriri ostida "O'zbek tilining izohli lug'ati" O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi A.Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. Toshkent-2020 yil. 432-bet.
2. Metyakubov, A.D. (2026). Scientific and Methodological Foundations for Improving Management Mechanisms in Construction Materials Enterprises. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 7(3).
3. Т.Н.Барсова, О.В.Орлова, Л.М.Путятина «Экономический потенциал предприятия: анализ современных научных подходов к исследованию и оценке деятельности предприятия» Экономика: проблемы, решения и перспективы. 2018 г. Стр 75-79
4. А.Н.Рахимов "Теоретические основы повышения эффективности производства в промышленных сетях" статья "Экономика и социум" №3(118) 2024 г. стр. 3-12

² Muallif ishlamasi

5. Л.А. Гамидуллаева Методика комплексной оценки потенциала промышленной экосистемы в контексте устойчивого развития региона / Л.А. Гамидуллаева, Т.О. Толстых, Н.В. Шмелева // Модели, системы, сети в экономике, технике, природе и обществе. – 2020. – № 2(34). – С. 29-48.
6. Барсова Т.Н., Орлова О.В., Путятин Л.М. Экономический потенциал промышленного предприятия: теория, оценка и развитие. – Москва: Инфра-М, 2019.
7. Рахимов А.Н. Иқтисодий салоҳиятни бошқариш назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2021.
8. Гамидуллаева Л.А. Промышленный потенциал региона: теория, оценка и механизмы развития. – Пенза: ПГУ, 2020.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
11. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. 2021–2025-yillar statistik to'plami. – Toshkent, 2026.
12. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining sanoati. Statistik to'plam. – Toshkent, 2025.
13. Achilov I.N. Improving the Methodology of Managing Construction Materials Manufacturing Enterprises. Academia Open. 2026;11(1).
14. Metyakubov A.D. Scientific and Methodological Foundations for Improving Management Mechanisms in Construction Materials Enterprises. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. 2026;7(3).
15. Igamova Sh.Z. Development Tendencies of the Building Materials Industry in Uzbekistan. Marketing Journal. 2025.